

Korxonada yoshlari uchun "Bir million dasturchi" loyihasi asosida o'quv kursi tashkil etildi

// 02 May 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korxonada-yoshlari-uchun-bir-million-dasturchi-loyihasi-asosida>



"Qo'ng'irotda soda zavodi"da yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan xayri tashabbuslar davom etmoqda.

Xususan, ayni kunlarda IT-parkning Qo'ng'irotda tumani filiali bilan hamkorlikda ishchi yoshlar uchun "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 3-kunlik o'quv kurslari tashkil etildi.



Mashg'ulotlardan ko'zlangan maqsad- yoshlarni IT sohasiga qiziqtirish va yo'naltirishdan iborat.

O'quv kursida axborot texnologiyasi sohasining bugungi kunda tutgan o'rni va ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berib borilyapti. Yoshlarni qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob olish imkoniyati yaratilmoqda.

Mashg'ulotlar davom etmoqda.



"Qo'ng'iroq soda zavodi" MCHJ QK matbuot xizmati